KORRUPSIYAGA QARŞI KURAŞ – UMUMMILLIY BURÇIMIZ

Bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu borada qabul qilinayotgan qonunlar, amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini hayotga keng joriy etish barcha davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar qatorida yirik sanoat korxonalari zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi."O‘zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaning har qanday ko‘rinishiga nisbatan mutlaqo murosasiz munosabat shakllangan.

Chunki korrupsiya iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi, investitsiya muhitining jozibadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, jamoada adolat va ishonch muhitini zaiflashtiradi. Ayniqsa, moliya, xaridlar, shartnomalar tuzish, hisob-kitoblar va aktivlarni boshqarish jarayonlarida qonunchilik talablariga qat’iy rioya qilish, ichki nazorat mexanizmlarini samarali yo‘lga qo‘yish hamda har bir qarorning xolislik va oshkoralik asosida qabul qilinishi ustuvor vazifalarimizdan hisoblanadi. Shu maqsadda jamiyatda korporativ boshqaruvning zamonaviy standartlari, ichki nazorat tizimi, tavakkalchiliklarni boshqarish mexanizmlari va komplaens madaniyatini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish imkonini beradi.Biroq eng mukammal tizim ham insonning halolligi, mas’uliyati va vijdonli mehnatining o‘rnini bosa olmaydi. Har bir rahbar va xodim o‘z faoliyatida xizmat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishi, qonunchilik va odob-axloq me’yorlariga so‘zsiz amal qilishi muhim ahamiyatga ega. Korrupsiyaga qarshi kurashish – faqat nazorat qiluvchi tuzilmalarning vazifasi emas.

Bu butun mehnat jamoasining umumiy burchi va korporativ madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir xodim korrupsiya holatlariga befarq bo‘lmasligi, qonunbuzilishlarning oldini olishga o‘z hissasini qo‘shishi korxonamizda halollik muhitini yanada mustahkamlaydi. Biz iqtisodiy barqarorlikka, raqobatbardosh ishlab chiqarishga va investorlar ishonchini mustahkamlashga intilayotgan ekanmiz, bu yo‘lda shaffoflik, qonuniylik va halollik asosiy tamoyillarimiz bo‘lib qolaveradi. "O‘zmetkombinat" AJ jamoasining har bir a’zosi korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni o‘zining kundalik mehnat faoliyatining ajralmas qismi deb bilishi kerak. Ana shundagina biz Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan, zamonaviy korporativ boshqaruvga ega, ochiq va samarali sanoat korxonasi sifatida yanada yuksak marralarni zabt etamiz.

Nodir YAKUBOV,
“Özmetkombinat” AJ Kuzatuv kengaşi huzuridagi Komplayens xizmati Boş menejeri.